

SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTON VA SAUDIYA O‘RTASIDAGI DINIY MUNOSABATLAR

Ravshanqulov Firdavs Mashraf o‘g‘li
Yangiyo‘l shahar Ixtisoslashtirilgan maktab internati
Tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada XX asrda sobiq Sovet davrida O‘zbekiston va Saudiya arabistoni o‘rtasidagi diniy munosabatlar, xususan, aholini Haj safarlarga borishlari diniy amallarni bajara olishlari haqida hamda o‘zbek musulmonlarini diniy turmush tarzlari haqida fikr va mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: dahriylik, e’tiqod erkinligi, ateistik siyosat, Diniy ishlar qo‘mitasi, Toshkent shahridagi “Ko‘kaldosh” madrasasi, Buxoro shahridagi “Kalon” masjidi, Namangan shahridagi “Shayx eshon”, Qarshi shahridagi “Ko‘k gumbaz” masjidlari,

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются религиозные отношения между Узбекистаном и Саудовской Аравией в постсоветский период в 20 веке, в частности, о возможности населения совершать хадж-паломничества, а также о религиозном образе жизни узбекских мусульман.

Ключевые слова: спиритизм, свобода вероисповедания, атеистическая политика, Комитет по делам религии, медресе “Кокалдош” в Ташкенте, мечеть “Калон” в Бухаре, “Шейх Эшон” в Намангане, мечети “Голубой купол в Карши”.

ABSTRACT

In this article, the religious relations between Uzbekistan and Saudi Arabia during the former Soviet period in the 20th century, in particular, about the ability of the population to go on Hajj pilgrimages, and about the religious lifestyle of Uzbek Muslims.

Keywords: spiritualism, freedom of belief, atheist policy, Committee of Religious Affairs, “Ko‘kaldosh” madrasa in Tashkent, “Kalon” mosque in Bukhara, “Sheikh Eshon” in Namangan, “Blue” in Karshi dome” mosques.

KIRISH

Sobiq ittifoq davrida milliy masalalar bilan birga diniy masala, diniy e'tiqod masalalari va SSSRning maxsus idoralar tomonidan ta'zyiqqa olinishi uzoq yillar davomida chuqurlashib bordi, bulardan ko'zlangan asosiy maqsad esa milliy va diniy qadriyatlarning yo'q qilinishi bilan bog'liq siyosat edi. Biroq xalqimizning milliy va diniy e'tiqod va urf-odatlarga milliy qadriyatlarga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishni mustabid tuzum siyosatining natija berishiga yo'l qo'ymadni. Mustaqillik yillarida mazkur soxalarda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan amalga oshirib borilgan islohotlar va vijdon erkinligi borasida qabul qilingan qator qonunlar, milliy ma'daniy markazlarning tashkil etilishi va barcha diniy va milliy qadryatlarning tiklanishi uchun keng yo'l ochib barilishi hamda davlat tomonidan qo'llab quvatlanishi, bu soxaning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

MUHOKAMA

Sovet davrida Makka va Madina hajiga borish, yoxud musulmonchilikning bu farzini bajarish amalda nazardan tushdi. Yuqorida ko'rsatilganidek, markscha - leninchcha metodologiya asosi bo'lgan ateizm (dahriylik) —Din - xalq uchun afyundir! - degan g'oyani xalq ommasi ongiga singdirishga harakat qilindi. Dinga munosabat mutaasiblik, eskilik sarqiti sifatida qarash, deb hisoblandi. Kommunistik mafkura hukmronligi sharoitida musulmon aholi naqadar og'ir turmush sharoitiga tushib qoldi. Madrasa va masjidlar yopilishi, islom me'moriy obidalarining vayron qilinishi, 1917, 1924, 1925 -1935- yillardagi harbiy to'qnashuvlar o'zbek xalqi ma'naviy- madaniy rivojiga o'nglab bo'lmas zARBalar berdi.

Ta'qib va tazyiqlar bolsheviklar tomonidan diniy ulamolarga ham, musulmon aholiga ham o'tkazildi. Musulmon uyg'onish davri moddiy va ma'naviy yodgorliklari qarovsiz holda qolib yarim xaroba holatiga keltirildi. O'rta Osiyo xalqlari tarixi o'rganilar ekan, 1920 - 1930 yillarda Farg'ona vodiysi, Buxoro hududlaridan ayrim yillarda 2 — 3 kishi haj ziyyoratiga borganligi kuzatiladi. Haj ziyyorati uchun Makka va Madinaga amallab yetib olgan barmoq bilan sanarli shaxslarning ham ayrimlari Vatanga qaytmasdan, u yoki bu Sharq mamlakatlaridan birida yashab qolishgan.

Ularning ko'pchiliklari Turkiya Respublikasini ikkinchi Vatan sifatida tanlashardi. Sobiq ziyyoratchilar Turkiya shaharlarida savdo — tijorat ishlari, hunarmandchilik, hamollik va boshqa xizmatlar bilan shug'ullanishgan. Ikkinci jahon urushi yillarida (1939-1945 yy.) sovet hukumati dinga munosabatda —yumshoqlik yo'lini tutdi. Maqsad fashizmga qarshi kurashda diniy ulamolar va musulmon aholini o'z tarafida turishi, og'ir damda jamiyat yakdilligiga erishish edi. Qolayersa, SSSR musulmon mamlakatlari bilan yaqinlashgandi. 1943 yildan diniy rasmiy idoralar tashkil etildi. Toshkent, Ufa, Boku xududlar bo'yicha musulmon boshqarmalari tashkil etildi. Jumladan, O'rta Osiyo musulmonlari diniy bopharmasi (keyinchalik O'rta Osiyo

musulmonlari diniy boshqarmasi, Movarounnaxr musulmonlari diniy boshqarmasi) tuzildi. Mazkur diniy boshqarmaga O‘zbekiston SSR hukumati Maorif nozirligi huzuridagi —Diniy ishlar qo‘mitasi ga haj ziyyaratiga borish uchun rasman ariza berishga ruxsat etildi. Makka va Madina hajiga borish uchun juda ko‘p sun’iy to‘siqlardan o‘tish kerak edi

Ma’lumki, Sobiq Sovet Ittifoqining Konstitutsiyasida e’tiqod erkinligi e’tirof etilgan bo‘lsada, amalda jamiyatga dahriylik mafkurasi zo‘rlab singdirilib, dindorlarning huquqlari poymol etilar edi.

Dahriylik siyosati diniy tashkilotlarning faoliyatiga sun’iy to‘siqlar yaratish, fuqarolarning hatto maishiy darajada diniy amallarni bajarishlarini keskin qoralash kabi shakllarda kechib, amalda vijdon erkinligi jiddiy cheklangan edi.

Ateistik siyosat avj olgan 1980-yillarning o‘rtalarida aholisi soni 18 milliondan ziyod bo‘lgan va ularning aksariyat qismini musulmon diniga e’tiqod qiluvchilar tashkil etgan respublikamizda atigi 80 ta masjid bo‘lgan. Mustabid tuzum tomonidan xalqni tarixiy va diniy-ma’rifiy ildizlaridan uzish maqsadida Imom Buxoriy, Xakim Termizi, Imom Termizi, Dorus-saodat kabi obida va ziyyaratgohlar atayin tashlandiq va harob ahvolga solingan edi. Bahouddin Naqshband ziyyaratgohi xonaqosida kimyoviy o‘g‘itlar saqlangan. Toshkent shahridagi “Ko‘kaldosh” madrasasi, Buxoro shahridagi “Kalon” masjidi, Namangan shahridagi “Shayx eshon”, Qarshi shahridagi “Ko‘k gumbaz” kabi yuzlab masjidlarning binolari omborxonaga aylantirilgan. Qarshi shahridagi “Odina” masjidi esa qamoqxona sifatida foydalanilgan.

XULOSA

Saudiya Arabiston bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar musulmon axoliga Islomga, diniy qadriyatlarga xurmat-izzat kuchayganligi tufayli iliqlashdi. O‘zbekistonga va Diniy Boshqarmaga Madaliy ibn Abdulla, Abdulqodir Muhammad Solih, Abduhakim xalifa Buxoriy, Abdullajon Namongoni, Sobir Dasan, Muhammad Yusuf, Muhammad Marg‘ub, Faxruddin Namangoni, Fazl Maqsud Fazlhamid, Abdulqodir Marg‘inoniy kabi Saudiya Arabistonning Toif, Jidda Makka, Madina, Robig shaharlarida yashovchi vatandosh o‘zbeklar tashrif buyurdilar. Ular o‘z qavm — qarindoshlari hamda o‘zbekistonlik musulmonlarni haj ziyyaratiga taklif qildilar, ziyyoratchilarga shart - sharoitlar yaratib berishda beg‘araz yordam ko‘rsatish istagini bildirdilar. 1989 - 1990- yillarda hojilar bilan Saudiya Arabistonidan O‘zbekistonga 1 million nusxa musulmonlarning muqaddas kitobi —Qur’on|| va moddiy yordam sovg‘alari yuborildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublisheasi Prezidenti Farmoni bilan 525 nafar yurtdoshlarimiz (shulardan 12 nafari ayollar) Makka va Madina shaharlariga muqaddas haj ziyyaratida bo‘ldilar. Saudiya Arabistoniga haj ziyyorati va u bilan bog‘lik marosimlar 1990 -yilning 19-iyunidan 10-iyuliga qadar Makka va Madinada bajo keltirilgan. Saudiya Arabistoniga haj ziyyorati bilan borgan millatdoshlarimizni 400 -

500 ming muhojir o‘zbeklarning aksariyati ko‘zda yosh bilan quchoq ochib kutib olganlar, ziyyoratchilarga yuksak ehtirom ko‘rsatilib mehmonnavozlik ko‘rsatilgan, ular o‘zbekistonliklar hech qanday musofirxonalarga, qiyinchiliklarsiz mehmonxonalarga joylashtirilgan, ziyyoratchilarga kitoblar sovg‘a qilingan. Do‘kondor, savdogar arabistonlik o‘zbeklar O‘zbekiston bilan tijorat qilish takliflarini bildirishgan.

Dastlab o‘zbekistonlik ziyyoratchilar Toshkent -Islomobod - (Pokiston) - Jidda (Saudiya Arabiston) yo‘nalishidagi havo laynerlari xizmatidan foydalanishgandi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan so‘ng, haj ziyyoratini samolyotda O‘zbekiston - Saudiya Arabistonni yo‘nalishida to‘g‘ridan — to‘g‘ri amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., —O‘zbekiston|| 2008.
2. Алимова Д. Шодмонова Q Из истории поломничества мусульм:ан Центральной Азии в Мекку (конец XIX Откачало XXI вв.) // O‘zbekiston tarixi — 201 1. — С. 60.
3. Хайитов Ш. Узбек мухожирлиги тарихи. Т: Cho‘lpon — 2008. - Б. 141
4. Хайитов Ш. Собиров Н. Легай А. Хориждаги узбеклар -Т.: Фан; 1992. - Б. 86.
5. Эсиргап Боли угли Жушкин. Хожилар. // Халк сузи, 1990 йил 4 январь
6. Hayitov SH. Orziyev M. Rossiya imperiyasi hukumatining musulmon ziyyoratchilarga munosabati (Arxiv manbalari asosida) BuxDU Ilmiy axboroti. 2012. 34-38-betlar.
7. Yusupov R. O‘zbekistonda XX asrning 40-80-yillarda musulmon diniy tashkilotlari va ulamolari faoliyati. Dissertatsiya. Toshkent; 2008.